



**XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI
ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 13 - sentabr

VI-64-182-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Angor tuman bo‘limining 2023-yil 2-chorak davomida faoliyati yuzasidan axboroti to‘g‘risida

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Angor tuman bo‘limi tomonidan 2023-yil 2-chorak davomidagi faoliyati yuzasidan axboroti xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Angor tuman bo‘limi boshlig‘ining 2023-yil 2-chorak davomidagi faoliyati yuzasidan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi (J.Abdurasulov)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-maydagi “Fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash jarayonini soddalashtirish hamda pensiya va nafaqalarni yetkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5102-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 654-son qarorlari mazmun-mohiyatini tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida tegishli soha vakillari bilan hamkorlikda xalq orasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

- pensiya va nafaqa tayinlash uchun fuqarolar tomonidan berilgan arizalarning o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini hamda qonunchilikda belgilangan tartibda ularga pensiya yoki nafaqa tayinlanishini;

- kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash uchun fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan taqdim qilingan arizalarni o'z vaqtida "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimiga kiritilishini;

- mahallalarda istiqomat qilayotgan fuqarolarga pensiya va nafaqalarni yetkazishda uchrayotgan muammolarni tahlil qilish va manfaatdor idoralarni jalg yetgan holda muhokama etish;

- ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pullarini to'lash bo'yicha fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarning ko'pligini inobatga olib, joylarda muntazam ravishda sayyor qabul, uchrashuv va seminarlar o'tkazilishini ta'minlasin.

3. AT "Xalq banki" tuman filiali boshqaruvchisi (A.Yusupov)ga:

- har oylik pensiya va nafaqa to'lovlari uchun ajratilgan mablag'larni to'lov qaydnomalari asosida belgilangan muddatlarda fuqarolarga yetkazish;

- pensiya va nafaqa to'lovlari tarqatilishi yuzasidan kamida uch kun oldin mahalla fuqarolar yig'ini raisini xabardor qilish hamda ushbu masalani mahallaning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida e'lon qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va Moliya bo'limi (S.Kuchkarov) kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam to'lovi uchun mablag'larni to'lov amalga oshiriladigan oyning 25-sanasidan kechiktirmay AT "Xalq banki"ning maxsus hisob-varag'iga o'tkazib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati va "Angor yog'dusi" gazetasi (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tahliliy hamda tanqidiy ruhda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov